



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA UNING YARATILISH TARIXI VA AHAMIYATI

G'ayratov Adhamjon Furqatjon o'g'li

FarDU Tarix fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

adhamjongayratov2007@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17357164>

ARTICLE INFO

Received: 1st October 2025

Accepted: 5th October 2025

Published: 15th October 2025

KEYWORDS

konstitutsiya, qonun, mustaqillik, modda, bob, demokratiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mustaqillik bosqichidagi konstitutsiya yaratishga qaratilgan ilk harakatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi, sabablari hamda bosqichlari o'rganilgan, shuningdek Yangi O'zbekiston poydevorini qurishda hamda Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda konstitutsiyaning ahamiyati tahlil qilingan.

KIRISH

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixini o'rganishdan oldin konstitutsiya so'zining lug'aviy ma'nosini bilib olishimiz zarur.

Konstitutsiya lotincha so'z bo'lib "tuzilish", "belgilash", "tuzuk" ma'nolarini anglatadi. Qadim davrlarda "Konstitutsiya" so'zi siyosiy tuzum ma'nosini ifodalagan. Konstitutsiya atamasi ilk bor Rim davlati qonunchiligida ishlatilgan. Buyuk fransuz inqilobi arafasida "Konstitutsiya" atamasi bilan davlatning huquqiy holati aks etib boshlagan. O'rta asrlarda Chingizxonning "Yasoq" kitobi, Amir Temurning "Temur Tuzuklari" kitoblari o'sha paytdagi takomillashgan konstitutsiyaga yaqqol misol bo'la oladi. Konstitutsiya davlat hokimiyatini, ma'muriy-hududiy tuzilishini, boshqaruv shakli, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari, mamlakatdagi mavjud huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini hamda jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydi. Konstitutsiyaga barcha belgilarga ega bo'lgan yuridik hujjat sifatida qarash hozirgi zamon xususiyatimizning juda muhim xususiyatidir.

Konstitutsiya Konstitutsiya muqaddimasi bilan boshlanadi. E'tiborga molik tomoni shundaki, bugungi kunda konstitutsiyaning kirish qismi ya'ni preambulasi ham huquqiylashib borishidir. Konstitutsiya muqaddimasida esa ushbu konstitutsiyani yaratish uchun asos bo'lgan sabablar, asoslar e'lon qilinadi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasi "Biz o'zbek xalqi" deb boshlanishi uning xalqchil ekanligini isbotlaydi hamda uch ming yillik tarixga ega xalqimizning asrlar davomida shakllangan orzu maqsadlarini ifoda etadi.

ASOSIY QISM

Konstitutsiyamiz yaratilish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u bir necha bosqichlardan tashkil topganligiga guvoh bo'lamiz. Mustaqillik bosqichiga qadar mamlakatimizda 1978-yilda qabul qilingan hamda asosan Sovet Ittifoqi davlatining manfaatlarini ifoda etuvchi O'zbekiston SSR konstitutsiyasi amal qilgan. Natijada mustaqil, suveren va demokratik davlat barpo etish uchun yangi konstitutsiya uchun ehtiyoj paydo bo'ldi. Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi birinchi huquqiy qadam – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir.

Bu haqda gap borganda, avvalambor, 1989 yilning 21 oktabr kuni qizg'in bahs va tortishuvlardan so'ng siyosiy-ma'naviy hayotimizdagi unutilmas hodisa amalga oshirilgani – milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan ona tilimizga davlat tili maqomi berilgani istiqlool tarixining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir.(3.1-b) Ushbu jarayon haqida O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak Ma'naviyat-Yengilmas kuch" asarida batafsil to'xtalib o'tgan hamda barcha munozaralarni aks ettirgan.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi ikkinchi huquqiy qadam – Prezidentlik instituti ta'sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzilishi bilan bog'liq.

Yurtimiz hayotidagi bu g'oyat muhim va hayajonli voqealar 1990 yilning mart oyida bo'lib o'tganini eslash joiz. O'shanda, ya'ni Mustaqilligimiz e'lon qilinishidan bir muncha vaqt oldin, o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik lavozimi joriy etildi, davlat ramzlari haqidagi masala muhokama qililib, bu borada maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor ana shu sessiyada ilgari surildi.(3.1-bet)

1990-yil 20-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 2-sessiyasida "Mustaqillik deklaratsiyasi" qabul qilindi.Ushbu tarixiy hujjat mustaqillik uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsadi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi"(1-1b).Deklaratsiyada davlatning bir qancha huquqiy maqomi e'tirof etilgan.Jumladan: tashqi munosabatlardagi tanho hokimlik,hududi va chegarasi hamda SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyingina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'lishi alohida bayon etilgan.E'tiborga molik tomoni shundan iboratki,ushbu hujjat 1992-yil 8-dekabrga qadar O'zbekiston Konstitutsiyasi vazifasini bajargan.Aynan shu sessiyada Islom Karimov tomonidan konstitutsiya yaratish uchun 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya tuzilgan.1991-yil 31-avgustga kelib jahon hamjamiyatida yangi,demokratik O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.Konstitutsiya yaratish masalasi eng muhim vazifaga aylandi.10-sessiyaga kelib komissiya a'zolari tarkibi qisman yangilandi.Komissiya tomonidan qabul qilingan qonunlar umumxalq muhokasi natijalari asosida unga tuztishlar kiritilib,Oliy Kengash sessiyasiga kiritildi va moddama-modda o'qib eshittirilib,qabul qilindi Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992-yil 26-sentabr kuni tayyor bo'lgan va shu kuni matbuotda chop etilgan. Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushgan. Mazkur taklif va mulohazalarga asosan 1992-yil 21-noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etilgan. Shundan so'ng 1992-yil 6-dekabrda Konstitutsiya loyihasi oxirgi marta muhokama etilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi demokratik davlatlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan o'tkazilgan.(4.1-b).O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muhokamasi 2 bosqichli bo'lganligi uni "xalqchil" ekanligini isbotlasa, O'zbekiston Konstitutsiyasining g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir.Natijada 1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq Oliy Kengashning 11-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.Har yili 8-dekabr umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.Asosiy qonunning tuzilishi 6 bo'lim,26 bob,128 moddadan iborat bo'ldi.Ushbu hodisa davlatimiz

mustaqilligining qonuniyligini anglatdi. Konstitutsiya mustaqil O'zbekistonning asosiy qonunini tashkil etib, mamlakatda amalga oshiriladigan barcha davlat siyosati va faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi. (1.1-b) Asosiy qonun mamlakatda fuqarolarning huquqlar, erkinliklari va burchlarini, tashqi siyosat tamoyillari, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni hamda huquqiy, demokratik davlat tamoyillarini o'zida aks ettirdi. Yillar mobaynida konstitutsiyamiz O'zbekiston Respublikasi huquqiy makonida asos bo'lib xizmat qildi. Chunki konstitutsiya asosida 8 ta konstitutsiyaviy qonun, turli sohalaridagi 15 ta kodeks, 200 dan ortiq turli xil xalqaro shartnomalar konstitutsiya asosida ratifikatsiya qilindi hamda mamlakatimiz hududida 600 dan majburiy xususiyatga ega qonunlar qabul qilindi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar uning sermahsul va yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda u nafaqat roman-german huquqiy oilasi tomonidan, balki butun jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yillar davomida konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati, prinsiplari hamda ularning tuzilish shakllari o'zgarib bordi. Jumladan, 1937-yildagi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida 146 ta modda, 13 bobdan iborat bo'lgan. 1978-yildagi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida esa 183 modda, 21 bob va 11 bo'limdan iborat bo'lgan. Vaqt shuni ko'rsatdiki, davrlar mobaynida konstitutsiyaning tuzilish shakli qisqarib, uning ahamiyati, qonuniyligi hamda jozibadorligi oshib bordi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatdagi barcha ijtimoiy, diniy hamda iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi, inson huquqlarini himoya qiluvchi ijtimoiy shartnomadir. U davlatning xalqaro huquqdagi mavqeini belgilab berdi hamda boshqa suveren davlatlar bilan tenglashtirdi. Asosiy qonun kelgusidagi taraqqiyot bosqichining asosi bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-bu nafaqat mamlakatning huquqiy asosi, balki har bir fuqaro uchun tenglik, erkinlik va adolatni ta'minlash yo'lidagi katta qadamdir. (2.4-b) Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyani ishlab chiqish, muhokama etish va qabul qilish jarayoni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnoma" bo'lganligi, u "xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini" aks ettirishi, uning "xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli" ekani haqidagi hikmatli xulosalari to'g'ri va asoslangan ekanini yaqqol tasdiqlaydi. (3.1-b) 2023-yil 30-aprelda tariximizda ilk referendum yo'li bilan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Chunki O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda 40 o'rinda turuvchi katta bir davlatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat kelgusi 7-yilda O'zbekistonning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanib, 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Uning maqsadlari va samaradorlik ko'rsatkichlari aholi tomonidan oson qabul qilinib, tushunish uchun qulay shaklda bayon etilgan. Ushbu strategiyada muhim 5 ustuvor yo'nalish belgilab qo'yilgan. Jumladan:

1. Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;
2. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
3. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
4. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
5. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Quyida keltirilgan ustuvor yo'nalishning 4-yo'nalishi aynan huquq bilan chambarchas bog'liq. Buning amaliyotda bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Shuni aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti, mamlakatning har tomonlama rivojlanishida, qabul qilinayotgan qonun, qaror va farmoyishlarning

ustuvorligini ta'minlashda, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ahamiyati beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mustaqillik deklaratsiyasi. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990-yil 20-iyundagi ikkinchi sessiyasida qabul qilingan
2. Abdullayev M. "Mustaqil O'zbekiston: Yangi Konstitutsiya va qonun chiqarish jarayoni". - Toshkent: Ma'naviyat, 2012
3. Mustaqillik Qomusi sari o'n huquqiy qadam <https://share.google/LTN1P80RDA70JRbDj>
4. Jahongir Musaboyev. Konstitutsiyamizning yaratilishi tarixi. 06.12.2022y.
<https://share.google/rUAj51jrCqBsLhmMz>
5. Konstitutsiya kutubxonasi <https://share.google/9dYJa188aq87k7Wl8>

